

ANEMIYANING KLINIK AHAMIYATI VA UNING OLDINI OLIISH YO'LLARI

Oyimxon Ro'ziboyeva

Qo'qon universiteti Andijon filiali, Davolash ishi yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18584222>

Annotatsiya: Anemiya (kamqonlik) – bu qonda gemoglobin yoki eritrositlar miqdorining kamayishi natijasida to'qimalarga kislorod yetkazib berishning buzilishidir. Asosiy belgilari charchoq, rang oqarishi, bosh aylanishi va nafas qisishidir. Eng keng tarqalgan turi temir tanqisligi anemiyasidir; davolash sababga ko'ra (temir preparatlari, ovqatlanishni to'g'rilash) amalga oshiriladi. Ushbu kasallik dunyo bo'yicha eng keng tarqalgan kasalliklardan biri hisoblanadi. Tezida anemiyaning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari va profilaktik choralari yoritilgan.

Kalit so'zlar: anemiya, emoglobin, eritrotsit, temir yetishmasligi.

Аннотация. Анемия — это нарушение доставки кислорода к тканям в результате снижения количества гемоглобина или эритроцитов в крови. Основные симптомы — усталость, бледность, головокружение и одышка. Наиболее распространенным типом является железодефицитная анемия; лечение проводится в зависимости от причины (препараты железа, коррекция питания). Это заболевание является одним из самых распространенных в мире. В диссертации рассматриваются причины анемии, клинические симптомы и профилактические меры.

Ключевые слова: анемия, гемоглобин, эритроциты, железодефицит.

Abstract. Anemia is a disorder of oxygen delivery to tissues as a result of a decrease in the amount of hemoglobin or erythrocytes in the blood. The main symptoms are fatigue, pallor, dizziness, and shortness of breath. The most common type is iron deficiency anemia; treatment is carried out depending on the cause (iron preparations, dietary correction).

This disease is one of the most common diseases in the world. The thesis covers the causes of anemia, clinical symptoms, and preventive measures.

Keywords: anemia, hemoglobin, erythrocytes, iron deficiency.

Anemiya — qonda gemoglobin va eritrotsitlar miqdorining kamayishi bilan tavsiflanadigan kasallikdir. Anemiya gemoglobin miqdorining kamayishi bilan kechuvchi patologik holat bo'lib, u organizmda kislorod yetkazib berilishining buzilishiga olib keladi. U ko'pincha temir tanqisligi, vitamin B₁₂ yoki foliy kislota yetishmovchiligi, surunkali kasalliklar va qon yo'qotish natijasida rivojlanadi. Ayniqsa ayollar, bolalar va homiladorlar orasida anemiya keng tarqalgan. Hayz qoni uzoq va ko'p ketadigan ayollarda ham temir yetishmasligidan kelib chiqadigan anemiya tez-tez uchrab turadi.

Temir yetishmasligiga aloqador anemiyaga qayta qayta homilador bo'lish, uzoq vaqt bola emizish sabab bo'ladi, chunki homiladorlik va emizuklik davrida ona organizmidagi temir zaxirasining bir qismi bolaga o'tadi. Kichik yoshdagi bolalarda kuzatiladigan kamqonlik ularni noto'g'ri ovqatlantirish, shuningdek ovqatning kam-ko'st bo'lishi oqibatida ro'y beradi.

Eritrotsitlar soni sal kamaygani yoki raso bo'lgani holda, qonda gemoglobin miqdorining ozayishi temir yetishmasligiga aloqador anemiyaning asosiy belgilaridandir. Anemiyaning asosiy patogenezida gemoglobin sintezining buzilishi yotadi. Natijada to'qimalarga kislorod yetkazilishi kamayadi va gipoksiya yuzaga keladi.

Klinik jihatdan anemiya holsizlik, tez charchash, bosh aylanishi, terining oqarishi, yurak urishining tezlashishi bilan namoyon bo'ladi. Uzoq davom etuvchi anemiya yurak-qon tomir tizimi faoliyatining buzilishiga, immunitetning pasayishiga va mehnat qobiliyatining kamayishiga olib keladi. Shu sababli kasallikni erta aniqlash va davolash muhim ahamiyatga ega. Bemorning rangi siniqqan bo'lib, aksariyat tez charchash, bosh og'rish, bosh aylanishi, ko'z oldi jivirlashishidan shikoyat qiladi, soch to'kiladi, tirnoq mo'rtlashib sinishga moyil bo'lib qoladi. Ba'zan yutinish qiyinlashadi, bemorning odatda iste'mol qilinmaydigan narsalar (bo'r, ohak, golvata va hokazo)ni yegisi keladi, achchiq, sho'r taomlarni xush ko'radi.

Temir yetishmasligiga aloqador anemiyaning oldini olish va davolashda qon yo'qotish ehtimoli bo'lgan manbalarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish, homilador bo'lish va tug'ishni ma'lum darajada rejalashtirishga erishish, bekamu ko'st ovqatlanishga rioya qilish lozim.

Vitamin B12 yoki folat kislota yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan anemiya ancha kam uchraydi. Anemiyaning bu xilida o'ziga xos alomatlar: til achishishi, kasallik o'tkazib yuborilganda nerv sistemasining zararlanish (funikulyar miyeloz) belgilari kuzatiladi. Bu turdagi anemiyaning oldini olish uchun me'da-ichak yo'lining surunkali kasalliklari, ayniqsa ich ketishi bilan o'tadigan kasalliklarni o'z vaqtida aniqlab davolash juda muhim.

Gijja tarqalgan joylarda ulardan zararlanishning oldini olish choralari ko'rish zarur, kasallik paydo bo'lganda esa o'z vaqtida davo qilish lozim. Eritrotsitlarning ko'plab yemirilishi bilan bog'liq gemolitik anemiya xillari ko'p. Ular irsiy yoki orttirilgan bo'lishi mumkin, odatda teri hamda shilliq qavatning sarg'ayishi, eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdorining kamayishi bilan kechadi. Barcha xil anemiyada vrachga murojaat etish va o'z vaqtida to'g'ri davolanish zarur.

Profilaktika ratsional ovqatlanish, temirga boy mahsulotlarni iste'mol qilish, vitamin yetishmovchiligini bartaraf etish va muntazam tibbiy ko'riklardan o'tishni o'z ichiga oladi.

Xulosa. Anemiya keng tarqalgan va jiddiy oqibatlarga olib keluvchi kasalliklardan biridir. Uni erta aniqlash va profilaktik choralarni amalga oshirish orqali asoratlarning oldini olish mumkin. Tibbiyot xodimlari va talabalari anemiyaning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Patologik Fiziologiya. Abdulxo'jayev. Qon tizimi va anemiya bo'limi.
2. Gematologiya asoslari. Oliy tibbiyot ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik-Toshkent
3. Parpiyeva, O. R., & Ostanaqulov, A. D. (2019). Health theory. *Форум молодых ученых*, (6 (34)), 26-28.
4. Parpiyeva, O. R., Nazarova, D., Ro'ziboyeva, O., & Jumaboyeva, M. (2024). SALOMATLIK-OLIV QADRIYAT SIFATIDA. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(27), 79-81.
5. Parpiyeva, O. R. (2022). Basics of a healthy lifestyle in the educational process. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 9, 89-94.
6. Эрматова, Г. А., Парпиева, О. Р., Якубов, А., & Камалова, Д. А. (2024). ПРИВЫЧКИ ЗДОРОВОГО ПИТАНИЯ В КОНТЕКСТЕ ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(5), 1221-1228.
7. Парпиева, О. Р., Эрматова, Г. А., Камалова, Д. А., & Якубов, А. (2024). КОРРЕЛЯЦИОННАЯ СВЯЗЬ МЕЖДУ ПИТАНИЕМ И СОСТОЯНИЕМ ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН

РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА.

8. Parpiyeva, O. R., & Davlatov, H. (2024). HEALTHY NUTRITION FOR SCHOOLCHILDREN. *Академические исследования в современной науке*, 3(45), 197-200.

9. Oybekovna, X. N., & Raxmanovna, P. O. (2024, December). VITAMINLAR VA VITAMINLAR YETISHMOVCHILIGI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 26, pp. 56-59).